



**O‘ TKIR APPENDITSITDA LAPAROSKOPIK VA OCHIQ
APPENDEKTOMIYANING SOLISHTIRMA NATIJALARI VA KEKSALARDA
TIKLANISH JARAYONI**

Suvonova Laylo Hasan qizi

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Chirchiq filiali 5-bosqich talabasi

Mamasoliyeva Shahnoza Farxod qizi

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Chirchiq filiali 5-bosqich talabasi

Kirish: O‘ tkir appenditsit - butun dunyoda eng ko‘ p uchraydigan shoshilinch xirurgik kasalliklardan biridir va umumiy aholining 7– 10 foizida hayoti davomida kuzatiladi. Keksalarda bu kasallikning kechishi o‘ ziga xos murakkabliklarga ega: klinik belgilar sust namoyon bo‘ lishi, kech tashxis qo‘ yilishi va ko‘ p hollarda surunkali yurak, buyrak yoki o‘ pka kasalliklari bilan kechishi operativ davolashda xavfni oshiradi. An‘ anaviy usul - ochiq appendektomiya bo‘ lib, u uzoq yillar davomida “ oltin standart” hisoblanib kelgan. Ammo laparoskopik appendektomiyaning joriy etilishi jarrohlikka minimal invaziv yondashuvni ta‘ minlab, og‘ riqni kamaytirish, asoratlarni qisqartirish va bemorning tez tiklanishiga imkon bermoqda. Ushbu tadqiqotda laparoskopik va ochiq appendektomiya natijalari, ayniqsa keksalar guruhida, ilmiy manbalar asosida solishtirib tahlil qilindi.

Mavzuning maqsadi: Keksalarda o‘ tkir appenditsitni davolashda laparoskopik va ochiq appendektomiyaning samaradorligi, xavfsizligi hamda operatsiyadan keyingi tiklanish jarayonini tahlil qilish.

Materiallar va metodlar: Tahlil uchun 2015– 2024-yillar oralig‘ ida nashr etilgan xalqaro ilmiy maqolalar, meta-tahlillar va randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar PubMed, Cochrane Library, va Scopus ma‘ lumotlar bazalaridan tanlab olindi. Tadqiqotlarda quyidagi ko‘ rsatkichlar solishtirildi: operatsiya davomiyligi, jarrohlikdan keyingi infeksiya (yara yallig‘ lanishi, absess), og‘ riq darajasi, kasalxonada yotish muddati, tiklanish va kundalik faoliyatga qaytish vaqti, o‘ lim holati.

Natijalar va muhokama: Meta-tahlillar natijasiga ko‘ ra, laparoskopik appendektomiya (LA) yara infeksiyasi xavfini 2,4% gacha kamaytirgani, ochiq appendektomiya (OA)da esa bu ko‘ rsatkich 6,7% bo‘ lgani aniqlangan ($p<0,01$). Bundan tashqari, kasalxonada qolish muddati LA guruhida o‘ rtacha 2-3 kun, OA guruhida esa 4-5 kunni tashkil qilgan. Operatsiya vaqti laparoskopik usulda biroz uzunroq (10– 15 daqiqa), ammo bemorlarning tez tiklanishi, kam og‘ riq sezishi va nafas olish asoratlarning kamayishi qayd etilgan. Keksalar orasida LA usuli kamroq og‘ irlik va asorat bilan kechgan, shuningdek, laparoskopik vizualizatsiya noto‘ g‘ ri tashxis va salbiy appendektomiya xavfini ham kamaytirgan.

Xulosa: Laparoskopik appendektomiya keksalarda o‘ tkir appenditsitni davolashda xavfsiz va samarali usul bo‘ lib, kam asoratlar, tez tiklanish va qisqa rehabilitatsiya davri bilan ajralib turadi. Ochiq appendektomiya esa murakkab, yiringli yoki diffuz peritonit

holatlarida afzal bo‘lishi mumkin. Kelgusida aynan keksalar orasida ko‘p markazli klinik tadqiqotlarni o‘tkazish laparoskopik yondashuvni yanada optimallashtirish imkonini beradi.

